

JIZZAX VILOYATI TUPROQLARI UNUMDORLIK O'ZGARISHINING QISHLOQ XO'JALIGIGA TA'SIRI

Xoldorova Gulbahor Mixliboevna

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi dotsenti., g.f.f.d., PhD,
e.mail:xoldorovaguli@gmail.com*

Mirzaolimov Doniyor Dilshod o'g'li

Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi

Аннотация. В данной статье на научной основе сопоставлены и проанализированы географические аспекты динамики плодородия почв, факторы, влияющие на плодородие почв Джизакской области, разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему развитию, а также проведен агрохимический анализ почв Достликского и Форишского районов. . Эта территория является экономически и экологически значимой, и разработаны мероприятия по повышению плодородия почв и их охране в будущем.

Ключевые слова: лекарственные растения, устойчивое использование, биоразнообразие, охрана природы, фармацевтическая промышленность, традиционная медицина, экосистемы.

Abstract. In this article, geographical aspects of soil fertility dynamics, factors affecting soil fertility of Jizzakh region were compared and analyzed on a scientific basis, proposals and recommendations for future development were developed, and soils of Dostlik and Forish districts were agrochemically analyzed. . This area is economically and ecologically significant, and measures have been developed to increase soil fertility and protect it in the future.

Keywords: medicinal plants, sustainable use, biodiversity, nature conservation, pharmaceutical industry, traditional medicine, ecosystems.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tuproq unumdorlik dinamikasini geografik jihatlarini, Jizzax viloyati tuproqlar unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy asosda qiyosiy-tahlil qilinib, istiqbolda rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan, hamda Do'stlik va Forish tumanlari tuproqlari agrokimyoviy tahlil qilingan. Ushbu soha iqtisodiy va ekologik jihatdan ahamiyatli bo'lib, kelajakda tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish chora-tadbirlar ishlab chiqilgan..


Kalit so'zlar: dorivor o'simliklar, barqaror foydalanish, bioxilma-xillik, tabiatni muhofaza qilish, farmatsevtika sanoati, an'anaviy tibbiyot, ekotizimlar.

Jizzax viloyati hududidagi tuproqlarni unumdorligini oshirish, ularning dinamik darajasini aniqlash va prognozlash, mazkur hududlarda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni yaxshilashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasining 55-moddasiga muvofiq tabiiy obektlarni, jumladan yer, umumxalq boyligi hisoblanib ular davlat muhofasi ostida turadi. Shuning uchun yer va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tuproqni muhofaza qilish, meliorativ holatini yaxshilash muhim o'rin tutadi. Hudud tuproqlarining xossa-xususiyatlarini o'rganish bugungi kunning eng dolzarb vazifalari qatoriga kiradi. Respublikamiz va Jizzax viloyati tekislik rayonlaridagi eng muhim muammo tuproqlarning sho'rlanishi hisoblanadi. Sho'rlanish natijasida tuproqlarning unumdorligi pasayib, dehqonchilikda ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda tuproqlarning unumdorligini oshirish, qishloq xo'jaligidagi asosiy ekinlar paxta, donli ekinlar va poliz ekinlarining mo'ljaldagi hosilini saqlab qolish, uni ilmiy asosda boshqarish va muhofaza qilish yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jizzax viloyat miqyosida tabiiy resurslarning, jumladan, unumdor yer resurslarining ko'pligi qishloq xo'jaligini kompleks rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratiladi. Keyingi yillarda mavjud imkoniyatlardan to'liqigicha foydalanish viloyat miqyosida paxtachilik, g'allachilik, pillachilik, chorvachilik, meva - sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirish tez suratlarda o'smoqda. Viloyatda qishloq xo'jalik sohaligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Qishloq xo'jaligida islohatlarni o'tkazish yer resurslari, ularning ekologik va meliorativ holati, bir so'z bilan aytganda tuproq unumdorligi darajasi bilan bevosita bog'liq.

Qishloq xo'jaligida yaroqli yerlar 1290,5 ming ga ni tashkil etadi. Bular haydaladigan yerlar, yaylovlar, pichanzorlar, tokzorlar va boshqalardan iborat. 850 ming ga dan ortig'ini yaylovlar, 9400 ga ni bog'lar, 8000 ga ni uzumzorlar, 2500 ga ni tutzorlar tashkil etadi.



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tarkibiy tuzilishida eng yuqori ulush

dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keladi (umumiy hajmga nisbatan 66,4 foiz). Qo'riqxonalariga aylantirilgan maydon viloyatimiz miqyosida 1 mln dan ko'proqdir. Viloyat o'rmon xo'jaligi ixtiyorida esa 165 ming ga ga yaqin yer maydoni mavjud. Haydaladigan yerlarning umumiy maydoni 455 ming ga ni tashkil etib, shundan 250 ming ga dan ko'proq sug'oriladigan obikor yerlar, qolgan 203 ming ga lalmikor yerlar hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlardan olinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari lalmikor yerlarnikiga qaraganda 5 - 6 marta ko'pdir. Statistik ma'lumotlar bo'yicha 2023 - yil viloyatimiz miqyosida 9,6 mingdan ko'proq fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatib, ular ixtiyorida 236 ming ga sug'oriladigan va 212 500 ga lalmikor yerlar hamda yaylovlar mavjud bo'lgan.

Tuproq resurslari nafaqat qishloq xo'jaligida, balki xalq xo'jaligining barcha sohalarida muhim ahamiyatga egadir. Yo'l qurilishi (avtomobil yo'llari, temir yo'llar), uy - joy qurilishi, shahar va qishloqlarda sanoat korxonalarini bunyod etish ham katta - katta maydondagi tuproqlarni egallaydi. Shuningdek, tuproq asosiy qurilish ashyosi sifatida ham (xom va pishiq g'ishtlar, kulolchilikda) juda ko'p ishlatiladi.

Jizzax viloyatida sug'oriladigan yerlar 387320 ga bo'lib, umumiy yer fondining 18,3 foizini tashkil etadi. Sug'oriladigan bo'z tuproqlar ichida to'q tusli bo'z tuproqlar 0,9 %, tipik bo'z tuproqlar 10,5 %, tipik bo'z tuproqlar mintaqasining bo'z o'tloqi tuproqlari 2,7 %, och tusli bo'z tuproqlari 3,7 %, och tusli bo'z tuproqlar mintaqasining o'tloqi bo'z tuproqlari 6,1 %, bo'z o'tloqi tuproqlar 67,1 %, o'tloqi tuproqlar 1,7 %ni egallagan. Sug'oriladigan tuproqli hududlar ko'pincha tabiiy va sun'iy suv o'tkazuvchanlikka ega emas, shuning uchun tuproqlar sho'rlanishga uchraydi. Hozirgi vaqtda sug'orildigan tuproqlar orasida kuchsiz sho'rlangan va yuvilgan yerlar katta maydonlarni (46,8 %) tashkil etadi.

So'nggi o'n yillikda sho'rxoklar, meleorativ holda qiyin bo'lgan bu yerlarni o'zlashtirish munosabati bilan o'rtacha va kuchsiz sho'rlangan maydonlar ko'payadi. Tuproq sho'rini yuvish tadbirini o'tkazishdan oldin esa barcha mavjud zovur tarmoqlarini ishchi holatiga keltirish (tozalash), tuproqning sho'rlangailik darajasi, sho'rlanish tipi (ximizmi), mexanik tarkibi, suv o'tkazuvchanlik xossalari hisobga olgan holda sho'r yuvish me'yorlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tadbirni o'tkazish (sho'r yuvish) uning birinchi etapida tuproqni sizot suvlarigacha bo'lgan qatlamlaridagi zararli tuzlardan mumkin qadar tozalanganda, ikkiinchi etapida esa sho'r yuvish va zovurlar yordamida sizot suvlari mineralizatsiyasi maqbul ko'rsatkich — litrda 2 grammgacha kamaytirilgan holatlarda sifatli o'tkazilgan hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda tumanlardagi sug'oriladigan tuproqlar kuchi sho'rlangan tuproqlarga 39,9 % dan 42,6 % gacha maydonlar to'g'ri keladi. Alohida ta'kidlash joizki, keyingi o'n yillikda sho'rxoklar maydoni juda tez qisqaradi. Tuproqlar unumdorligining pasayishida suv eroziyasi ham ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Tuproq yuvilganda mayda zarrachalari bilan organik moddalar olib chiqilib ketiladi, chirindi qatlam qisqaradi, chirindi miqdori kamayadi.

Sug'oriladigan tuproqlarning yuvilganligiga ko'ra tavsifi (% hisobida)**1 - jadval**

r	Tumanla	Irrigatsi on eroziyaga uchragan yerlar	Shu jumladan		
			Kuchsiz yuvilgan	O`rtach a yuvilgan	Kuchli yuvilgan
	Arnasoy	5959	100,0	-	-
	Baxmal	8101	61,8	38,2	-
	G`allaoro	7480	70,6	29,4	-
	Jizzax	10864	94,2	5,7	0,1
	Zomin	7239	100,0	-	-
	Zarbdor	1667	100,0	-	-
	Forish	261	100,0	-	-
	Yangiob	3021	93,3	6,7	-
od	Jami	44592	86,3	13,9	

Sug'oriladigan botqoq-o'tloq tuproqlar yer osti suvlari yuzaga yaqin joylashishi va zovur suvlarining betartib tashlanishi natijasida yuzaga keladi.. Aniq agrotexnik va meliorativ tadbirlar bu tuproqlarning xususiyatini yaxshilaydi, salbiy ko'rinishlarni tugatadi hamda qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirishda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ko'pchilik joylarda sug'oriladigan sho'rlangan tuproqlarni kuchsiz sho'rlangan va yuvilgan tuproqlar egallagan (30,7 % dan 91 % gacha). Bu tumanlarning yerlari meleorativ jihatdan qulay hisoblanadi.

Jizzax viloyati yerlarida suv eroziyasiga uchragan yerlarda kuchsiz tuproqlar (86,3 %) ko'pchilikni tashkil qiladi. Viloyat hududida lalmi tuproqlardan o'rtacha yuvilgan tuproqlar ko'proq. Kuchli yuvilgan lalmi tuproqlar faqat Baxmal va Jizzax tumanlarda keng tarqalgandir. Hozirgi kunda viloyatimizda amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng ustivor vazifalarga quyidagilar kiradi:

- sug'orish tizimlari va inshootlarini qayta rekonstruktsiya qilish;
- o'zlashtirilgan yerlardan samarali foydalanish, tabiiy va iqtisodiy geografik omillarni hisobga olgan holda qishloq xo'jalik ekinlarini landshaft tiplariga moslashtirib joylashtirish;
- buzilgan antropogen landshaftlarni rekultivatsiya qilish va ularning geoeologik muvozanatini tiklash;
- landshaftlarini kompleks o'rganish va shu asosda ulardan samarali foydalanish va muhofaza qilishning geografik asoslarini ishlab chiqish.

Yer sharining deyarli barcha mamlakatlarida, jumladan respublikamizda ham tan olingan va amalga oshirilayotgan barqaror rivojlanish kontseptsiyasi tabiat, iqtisodiyot

va ijtimoiy sohalarning teng huquqliligiga asoslanadi. Barcha hududlarda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni yaxshilash, muhofaza qilish, mavjud ekologik muammolarning echimini topish, barqaror rivojlanishning asosi hisoblanadi. Shu munosabat bilan tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishni strategik rejalashtirish barqaror rivojlanishning muhim vositasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алибеков Л.А., Нишонов С.А. «Природные условия и ресурсы Джизакской области». Ташкент. «Узбекистан». 1978 г.
2. Alibekov. L.A., S.A.Nishonov. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan ratsional foydalanish. Toshkent "O'qituvchi" 1983 y
3. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. Toshkent. O'qituvchi. 1994 y.
4. O'zbekiston «Ekologiya xabarnomasi» jurnali 2012 yil sonlari.
5. Хакимов, К. М., Эрматова, Н. Н., & Холдорова, Г. М. принципы основные положения номинации географических объектов.
6. Xoldorova G., Usmanov, M. (2020). Мирзачўл табиий географик райони ҳудудининг тупроқ қоплами мониторинг тизимини ташкил этишнинг амалий жиҳатлари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-7.
7. Xoldorova, G. (2021). Проблемы мониторинга окржающей среды мирзачуля. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1455>
8. Холдорова Г., Эсонов С.Э. М Сангзор хавзаси геосистемаларида тупрокларининг мелиоратив ҳолатини картага туширишда тизимли таҳлилдан фойдаланиш "Journal of Natural Sciences" №2 2021 y. <http://natscience.jspi.uz>
9. O.Ruzikulova, N. Sabitova G. Kholdorova The role of GIS texnology in determining irrigateci geosistems E3S Web of Conferences 227,03004(2021) GI 2021 <https://do.org/10.1051/e3sconf/202122703004>. 257 б
10. Mixliboyevna, X. G. (2024). Jizzax viloyati agroiqlimiy resurslarining xo'jalikdagi ahamiyati. " russian" инновационные подходы в современной науке, 1(1).
11. Холдорова, Г. М., & Раимкулова, Ф. Ф. (2022). Жиззах вилояти табиий ресурслари ва улардан оқилон фойдаланиш муаммолари. Журнал естественных наук, 1(1 (6)), 270-276.